

CHIRCHIQ DARYOSIDAGI ARXEOLGIK TADQIQOTLAR TARIXI

Mirzayev Bekzod Akbar o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

tarix yo'nalishi 1-boisqich magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20792469>

Annotatsiya: Chirchiq daryosi havzasidagi arxeologik tadqiqotlar, Ilk sivilizatsiyalar o'choqlaridan biri, arxeolog Yu.F. Buryakov, Toshkent, (Parak, Farak, Turk).

Kalit so'zlar: Toshkent, Piskom va Chotqol daryolari havzasidagi yodgorliklar, Chirchiq vodiysi Buyuk Ipak yo'lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, xalqimizning o'z tarixi o'tmishi moddiy va ma'naviy madaniyatiga qiziqish ortib bormoqda bugungi kunda. Ilk sivilizatsiyalar o'choqlaridan biri bo'lgan o'zbekiston turli tarixiy davrlarga oid moddiy madaniyat yodgorliklariga nihoyatda boydir. Shu, jumladan mintaqamizning turli hududlarida keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Bu arxeologik tadqiqotlardan ko'zlangan maqsad bu hudud tarixini kengroq o'rganish, tadqiq etish, ilmiy asoslash va dalillashdir. Shunday hududlardan biri Chirchiq daryosi havzasidagi arxeologik tadqiqotlar xususida. Chirchiq vohasining ko'p mingyillik tarixga ega arxeologik obyektlari – Shahar va qishloqlar xarobalari, qabr - qo'rg'onlar, qoyatosh suratlari, tosh davri manzillari va ustaxonalar kabilar havaskor va mutaxassis tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.¹

Chirchiq daryosi havzasidagi arxeologik tadqiqotlar asosan Toshkent vohasi (Qadimgi Choch) tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, XIX asr oxiridan boshlangan. Bu hudud paleolit davridan to ilk va rivojlangan o'rta asrlargacha yirik madaniyat va dehqonchilik markazlaridan biri bo'lgan.² Toshkent vohasi - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo'ib, Buyuk Ipak yo'lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo'ib xizmat qilgan. Bu voha orqali o'tgan karvon yo'llari Sharq va G'arb o'rtasida nafaqat tovarlar almashinuvi, balki g'oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Hududda joylashgan qadimiy shaharlar, qo'rg'onlar, me'moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e'tibor markazida turibdi. Toshkent vohasi tarixini o'rganish - o'z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

1977 yilda Toshkent vohasining arxeologik yodgorliklarini o'rganish borasidagi izlanishlar Chirchiq daryosining o'rta va quyi oqimlarida (Yangiyo'l va Chinoz tumanlarida) olib borilgan. Bu hududlardagi tekshirish va tadqiqot ishlari natijasida 12 ta yangi yodgorlik aniqlangan.³ Toshkent vohasidagi arxeologik yodgorliklarining xarobalari saqlangan joylarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda qaytadan tavsiflab chiqish bugungi kun talablaridan hisoblanadi.⁴ Toshkentni Yu.F. Buryakov voha tabiiy-geografik xolati, tuprog'i va iqlimi xususiyatlaridan kelib chiqib mintaq tizimini to'rt tumanga ajratishni taklif qilganligini Arxeolog

¹ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 26-bet.

² Zuhridin Alimov – Toshkent vohasi tarixiy geografiyasining arab tili manbalardagi tavsfi. – Toshkent. 2021. 6-bet.

³ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 197-bet.

⁴ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 198-bet.

PhD, dots., D.R. Normurodov o'zining ilmiy tadqiqotlarida keltirib o'tgan. Bular a) Chirchiq va Keles daryolari havzasi; b) daryolar oralig'idagi keng tog'oldi hududlari; v) Ohangaron daryosi havzasi; g) Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi tekisliklardan iborat.⁵ Bu kabi guruhlariga bo'lish Chirchiq vodiysidagi arxeologik yodgorliklarni hudud bo'yicha taqsimlashga va oson tadqiq etishga yo'l ochadi. Toshkent vohasidagi arxeologik va madaniy meros yodgorliklarini o'rganilishi tarixi kamida bir asrga teng. Ammo dastlab butun voha yodgorliklarini ma'lum bir tizimda ilmiy muammo sifatida ko'targan arxeolog Yu.F. Buryakov bo'ladi. So'ngra O.M. Rostovsev, M.R. Qosimov va boshqa mutaxassislarning olib borgan tadqiqotlari natijasida yana bir qator yangi yodgorliklar topilib, ilmiy muomalaga kiritilgan.⁶

O'rta asrlarda Chirchiq (Parak, Farak, Turk) daryosi havzasi Chochning yadrosi hisoblangan. Asosan bu daryo va uning irmoqlari bo'ylab Chochdagi dehqonchilik vohalari va shahar madaniyati rivojlangan. Buni isbotlovchi ko'plab moddiy va madaniy meros ashyolari aniqlangan. Tabiiy-geografik va ekologik jihatlaridan Chirchiq daryosi havzasidagi yodgorliklari shartli ravishda quyidagicha 8 qismga bo'lingan.⁷

Quydagilar 1. Piskom vodiysidagi yodgorliklar; 2. Chorqol vodiysidagi yodgorliklar; 3. Chirchiq daryosining yuqori oqimidagi yodgorliklar; 4. Chirchiq daryosi o'rta oqimining o'ng sohilidagi yodgorliklar; 5. Chirchiq daryosi o'rta oqimining chap sohilidagi yodgorliklar; 6. Toshkent shahri va uning atroflaridagi yodgorliklar; 7. Chirchiq daryosi quyi oqimining chap sohilidagi yodgorliklar; 8. Chirchiq daryosi quyi oqimining o'ng sohilidagi yodgorliklar.⁸ Shunga o'xshash hududni arxeologik mintaqalarga bo'lish undagi yodgorliklarni tavsiflash imkonini beradi. Hozirgi zamon arxeologik tadqiqotlarida bunday guruhlariga bo'lish ijobiy natija berishi isbotlangan.

Chirchiq daryo vodiysining yuqorisida, Piskom va Chotqol daryolari qo'shiladigan joydan pastda va Chirchiq irmoqlari bo'ylab joylashgan yodgorliklar o'ziga xos guruhni tashkil etadi. Bu qismga Chorvoq suv ombori to'g'onidan Chirchiqqa chapdan quyiladigan Oqsoqotasoy hududlarigacha bo'lgan (uzunligi 25 km.) yerlar kiradi. Bu hududning ikki tomoni tog'lar, daryoga yaqin yerlari kichik hajmli tekisliklardan iborat bo'lib, tekislik qismlari o'troq dehqonchilik uchun qulay hudud hisoblanadi. Yu.F. Buryakov Chirchiq daryosi yuqori oqimidagi jami 28 ta o'troq madaniyatga oid manzillarni ajratgan olimlardan biridir.⁹

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi. - Toshkent, 2023.
2. Zuhridin Alimov – Toshkent vohasi tarixiy geografiyasining arab tili manbalardagi tavsfi. – Toshkent. 2021.

⁵ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 198-bet.

⁶ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 199-bet.

⁷ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 199-bet.

⁸ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 200-bet.

⁹ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 225-bet.